

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati**  
**Komplayens xizmati tomonidan 2024-yil davomida korrupsiyaviy**  
**xavf-xatarlarni aniqlash va baholash yo‘nalishida**  
**amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida**

**H I S O B O T**

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining 2023-yil 18-dekabrda 725-sonli buyrug‘i asosida Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash tadbiri o‘tkazilgan, bunda 6538 nafar xodimlar ishtirokida so‘rovnoma o‘tkazilgan. Baholash natijalariga ko‘ra, Jamiyatda mavjud jami **947 ta** funksiyalarning **3 tasi** “yuqori”, **45 tasi** “o‘rta” va **899 tasi** “past” darajadagi xavf-xatarlar baholanib, ularni oldini olish va bartaraf etish yuzasidan 2024-yil 20-fevralda **46** banddan iborat korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish, kelgusida oldini olish va korrupsiyaga qarshi kurashish Dasturi, Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning umumlashtirilgan Xaritasi va korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati hamda korrupsiyaga moyil bo‘lgan munosabatlar elektron reestri shakllantirib, tasdiqlangan.

2024-yil 31-dekabr holatiga Dasturning **33 ta** bandi ijrosi ta‘minlandi va **13 ta** bandlar ijrosi nazoratga olindi. Dastur bandlari ijrosi ta‘minlanganligi natijasida **22 ta** yo‘nalish tartibga solindi, **11 tasi** avtomatlashtirildi.

Jamiyatda **2024-yildan** aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi, Kuzatuv kengashi va Boshqaruviga ko‘rib chiqish uchun kiritiladigan va ularning so‘roviga ko‘ra yuboriladigan hujjatlar loyihalari, Bosh direktor va bosh direktor o‘rinbosarlari qabullari yakuni bo‘yicha tuzilgan bayonnomalar loyihalarini Bosh yuriskonsult va Komplayens xizmati tomonidan **huquqiy va korrupsiyaviy ekspertizadan o‘tkazish tartibi** joriy etildi. Mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha **128 ta** (*38 ta fuqaro qabullari bo‘yicha va 90 ta boshqaruvga ko‘rib chiqish uchun kiritilgan*) hujjatlarning qonuniyligi ko‘rib chiqildi.

Xizmat tomonidan jami **7 121 ta** (*6 164 ta buyruq va 957 ta farmoyish*) ichki idoraviy hujjatlar korrupsiyaga qarshi huquqiy ekspertizadan o‘tkazildi. Korrupsiyaviy ekspertiza natijasida **516 ta** ichki idoraviy hujjatlar normativ-huquqiy yoki ichki idoraviy hujjatlar talablariga muvofiqlashtirildi.